

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12. San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

SADULLAYEVA KAMOLA OLIMOVNA

**BAHODIR YO‘LDOSHEV REJISSURASIDA AN’ANA VA ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR**

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 792.071.2(575.1)(092)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Sadullayeva Kamola Olimovna

Bahodir Yo‘ldoshev rejissurasida an’ana va zamonaviy tendensiyalar..... 3

Садуллаева Камола Олимовна

Традиции и современные тенденции в режиссуре Баходира

Юлдашева 23

Sadullaeva Kamola Olimovna

Traditions and modern trends in Bahodir Yuldoshev’s directing 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12. San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

SADULLAYEVA KAMOLA OLIMOVNA

**BAHODIR YO‘LDOSHEV REJISSURASIDA AN’ANA VA ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR**

17.00.01 – Teatr san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/San286 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (dsmi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Sarvinoz Muhsinovna
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

To'ychiyeva Sayyora Suyarqulovna
falsafa fanlari doktori, professor

Abdurasulov Shohruh Abdunaimovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Madaniyatshunoslik va nomoddiy-madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 19-avgust soat 10.00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-«A» uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (52 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-«A» uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 27-iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil 27-iyuldagi 19-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan madaniy integratsiyalashuv kontekstida teatr san'atining yosh avlod ma'naviyatini boyitish, yuzaga kelayotgan innovatsion izlanishlarning yoshlar badiiy saviyasiga ta'siri masalalari kun sayin ortib bormoqda. Tomoshabinlarning estetik dunyoqarashi, badiiy ongi hamda tomosha madaniyati rivojlanishining nazariy, amaliy, konseptual masalalari, ularga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan sahna eksperimentlari ommalashmoqda. Rejissyorning ijtimoiy-madaniy voqeaga aylangan spektakllari, rejissura san'atida kuzatilayotgan an'ana va zamonaviy tendensiyalar, integratsiyalashuv jarayonlarida badiiy sintez borasidagi tajribalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon teatrshunoslik ilmda yangi badiiy izlanishlar, shakl va zamonaviy g'oyalar sintezi yo'lida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy teatr san'atiga bag'ishlangan tadqiqotlarda rejissura san'atida kuzatilayotgan rivojlanish tamoyillarini umumiy teatr taraqqiyotidan ajratmagan holda o'rganish, teatrning boshqa san'at turlari bilan sintezlashuvi, hayot haqiqati va badiiylilik mezonlari kabilarga ijod hamda ijodkor prizmasi orqali fikr yuritilmoqda. Teatr san'atida an'ana va zamonaviy tendensiyalar integratsiyaning badiiy sintezini ta'minlashda rejissyor fenomeni, uning ijodiy uslublari, rejissuradagi spetsifik izlanishlari, aktyorlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik uslublarga qaratilgan ilmiy izlanishlar zarurati yuzaga kelmoqda.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan madaniy islohotlarda o'zbek teatrining zamonaviy qiyofasini anglash, rejissura maktabining ijodiy mazmuni, metodikasini tizimlashtirish teatr ta'limi, san'at pedagogikasida uzluksizlik, vorisiylik hamda ustoz-shogird an'analari mavzusini rivojlantirish masalalari barqarorlashmoqda. «Teatr san'ati hamda teatr tanqidchiligida «ustoz-shogird» an'analari va mahorat maktablarini rivojlantirish maqsadida teatr san'atidagi iste'dodli va yuqori malakali ijodkorlar, teatrshunoslar va san'atshunoslarning mahorat maktablarini tashkil etish»¹ kabi vazifalarga e'tibor qaratilmoqda. Teatr san'atida kasbiy ko'nikmalarni bevosita ustozdan shogirdga, qo'ldan qo'lga o'tkazish jarayoni muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada rejissyor Bahodir Yo'ldoshev ijodiy faoliyatida an'ana va zamonaviy tendensiyalar masalalarini tadqiq etish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son «Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2024-yil 11-noyabrdagi PQ-399-son «Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2026-yil 21-apreldagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son «Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2024 y., 07/24/399/1000-son.

PQ–150-son «Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 266-son «Diydor» yoshlar eksperimental teatr-studiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida», 2022-yil 28-apreldagi 223-son «Atoqli olimlar, madaniyat va san’at sohasi vakillarining yubiley sanalarini keng nishonlash hamda ular faoliyatini targ‘ib etish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rejissuraning rivojlanishidagi bosqichlar va evolyutsiyasi, shuningdek, zamonaviy teatr rejissurasida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlar, bu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan iqtidorli rejissyorlarning uslublari, rejissyor va aktyorni tarbiyalash muammolari turli badiiy-estetik konsepsiyalar xorijlik tadqiqotchilar nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Jumladan, Arastuning «Poetika» asari badiiy-estetik izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi². Shuningdek, M.Billington, P.Bruk, M.Fortye, L.Gardner, D.Gerruld, Y.Grotovskiy, A.Kamyu, A.Saddik, J.Streler, M.Haridi, I.Chabbak³ kabi nazariyotchilarni sanab o‘tish o‘rinli. Shuni alohida qayd qilish zarurki, G‘arb davlatlarida teatrlar o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlash, kommersiya asosida faoliyat yuritadi. Faqat yirik teatrlar, masalan, Britaniya qirolligi teatri, AQSHda Kongress teatri kabi muassasalar davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Shuning uchun G‘arb tadqiqotchilari asosan nodavlat teatrlarining badiiy-estetik jihatlarini tahlil qiladilar.

² Аристотель. Сочинения в четырех томах: Т. 4. – Москва: Мысль, – 830 с. 1983.

³ Billington M. Whatever you want //The Guardian. <https://www.theguardian.com/culture/2001/sep/21/21stcenturyarts.artsfeatures1>; Bruk P. Rejissyor – “Marsda” ham rejissyor / rus tilidan Sh.Abdurasulov tarjimasi // Jahon adabiyoti. – 2016. – № 10. – B. 32-33.; Fortye M. Routledge. https://books.google.co.uz/books/about/-Theory_Theatre.html?id=-3YkW-EQ-AA-Q-B-AJ&redir_esc=y; Gardner L. Modern Theatre relies too much on technology // The Guardian (<https://www.theguardian.com/>). <https://www.theguardian.com/stage/theatreblog/2008/apr/17/theatretechnology> (murojaat sanasi: 06.05.2026).; Gerould D. Theatre. Theory. Theatre. The Major Critical Texts from Aristotle and Zeami to Soyinka and Havel. – California: Bloomsbury Academic, 2000. – 492 p.; URL https://books.google.co.uz/books/about/Theatre_Theory_Theatre.html?id=-FbiGAAAAIAAJ&redir_esc=y (murojaat sanasi: 07.05.2026).; New Theatre Quarterly 67: Volume 17, Part 3. – London: Cambridge University Press, 2001.– 96 p. URL: https://books.google.co.uz/books/about/New_Theatre_Quarterly_67_Volume_17_Part.html?id=6HrZoVLuk8UC&redir_esc=y.; Гротовский Е. От бедного театра к искусству-проводнику. – М.: Артист. Режиссер. Театр, 2003; Гротовский Е.К бедному театру. – М.: Артист. Режиссер. Театр, 2009.; Камю А. Isyon va san’at (“Isonkor odam” kitobidan) // Jahon adabiyoti. – 1997. – № 12. – B. 32-33.; Annette J. Saddik. Contemporary American Drama. – Edinburgh University Press, 2007.- 227 p. Streler J. Brext bilan so‘nggi uchrashuv / rus tilidan B.Qurbon tarjimasi // Jahon adabiyoti. – 2015. – № 9. – B. 32-35.; Haridy M. Theatre Today. – London, 2013. – 760 p. URL: <https://books.apple.com/au/book/theatre-today/id602852252>.; Чаббак И. Мастерство актёра: Техника Чаббак. – М.: Искусство, 2004. – 158 с.

MDH davlatlarida teatr san'atining genezisi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, repertuar siyosati, spektakllarining jamiyat va insonlar ma'naviy olamiga, badiiy-estetik didini shakllantirishga ta'siri va professionalizm masalalari, shuningdek rejissuraning qator muammolarini qator tadqiqotchilar o'rgangan. Bu borada F.Aleksayte, O.Andreykina, Y.Artemyeva, A.Dubrovskaya, O.Fedenkova, V.Kolyazin, O.Lipsin, V.Markov, V.Maksimov, Z.Maslennikova, M.Molchanova, Y.Mosina, M.Naydenko, V.Norenko, L.Novikova, L.Ragimova, V.Starodubsev, Y.Slesar, V.Zolotuxinlar tadqiqotlarini⁴ keltirish mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, ularning izlanishlari va ilmiy metodologik prinsiplari K.Stanislavskiy, V.Nemirovich-Danchenko, Y.Vaxtangov, V.Meyerxold, A.Tairov, V.Saxnovskiy, A.Efros, O.Yefremov, G.Tovstonogov, M.Romm, V.Shklovskiy, M.Knebellar⁵ tomonidan amaliy va ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan manbalarga asoslanadi. Ularda teatr san'ati janrlari va oqimlari, teatr va milliylik, teatr va

⁴ Алексайте И. Становление и развитие режиссуры литовского драматического театра (1918–1940). Автореф. дис. ... док. искусс. наук. – М., 1982. – 44 с.; Андрейкина О. «Моя жизнь в искусстве» К.С.Станиславского как опыт артистического самоанализа: К проблемам творческого подсознания режиссера. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2001. – 34 с.; Артемьева Е. Осмысление системы Станиславского в американской театральной культуре. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2008. – 24 с.; Дубровская А. Работа над сценическим образом в системе Вахтанговской театральной школы. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2010. – 29 с.; Феденкова О. Древнегреческая трагедия и режиссерское искусство 70–90-х гг. XX века. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2000. – 23 с.; Колязин В. Таиров, Мейерхольд и Германия. Пискатор, Брехт и Россия: Очерки истории русско-немецких художественных связей. Автореф. дис. ... док. искусс. наук. – М., 1998. – 42 с.; Лишцын О. Игровой театр как методика воспитания современного актера и режиссера. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2010. – 22 с.; Марков В. Профессиональная подготовка режиссера любительского театра к социально-культурной деятельности: Методика погружения в специальность. Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Санкт-Петербург, 1998. – 42 с.; Максимов В. Театральные концепции модернизма и система Антонена Арто. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – Санкт-Петербург, 2001. – 24 с.; Масленникова З. Педагогические аспекты системы К.С.Станиславского как средство оптимизации профессиональной подготовки режиссёров в вузе культуры и искусств. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2006. – 24с.; Молчанова М. Культур-философские и эстетические предпосылки формирования режиссерского мышления в Германии на рубеже XVIII–XIX веков. Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – М., 2016. – 24 с.; Мосина Е. Проблемы сценографии в режиссуре К.Станиславского. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 1985. – 29 с.; Найденко М. Система К.С.Станиславского: Социокультурные основы и культурологические основания. Автореф. дис. ... док. культур. наук. – Краснодар, 2005. – 42 с.; Норенко В. Режиссерский замысел в структуре спектакля. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – Санкт-Петербург, 1984. – 29 с.; Новикова Л. Станислав Игнатий Виткевич, 1885–1935: Театральная теория и режиссура. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – Санкт-Петербург, 1999. – 22 с.; Рагимова Л. Взаимодействие драматургии и режиссуры в процессе становления советского сценического искусства (Азербайджанский театр им. Азизбекова в 20-е – 30-е годы). Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 1985. – 26 с.; Стародубцев В. Методика обучения мастерству актера и режиссуре оперы. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2011. – 21 с.; Слесарь Е. Режиссер – драматург: модели их взаимоотношений в зарубежном и отечественном театре конца XIX–XX веков. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 27 с.; Золотухин В. Проблемы сотворчества актера и режиссера в спектаклях 1910–1930-х годов: Ю.Юрьев и Вс. Мейерхольд. Автореф. дис. ... канд. искусс. наук. – М., 2008. – 24 с.

⁵ Станиславский К. Собр. соч. в 9 т.: Т. 1. Моя жизнь в искусстве. – М.: Искусство, 1988. – 621 с.; Stanislavskiy K. Aktyorning o'z ustida ishlashi: 1-qism. Ijodiy kechinma jarayonida o'z ustida ishlashi. O'quvchining kundalik daftari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 314 b.; Немирович-Данченко В. О театральном искусстве. О творчестве актера и режиссёра. – М.: Директмедиа, 2003. – 623 с.; Немирович-Данченко В. Рождение театра. – М.: Правда, 1989. – 575 с.; Сахновский В. Режиссура и методика её преподавания. – М.: Искусство, 1939. – 239 с.; Эфрос А. Профессия – режиссёр. – М.: Вагриус, 2000. – 570 с.; Ефремов О. Настоящий строитель театра. – М.: Зебра Е, 2011. – 426 с.; Tovstonogov G. Sahna ko'zgusi / rus tilidan J.Mahmud tarjimai // Jahon adabiyoti. – 2017. – № 5-6. – В. 12-14.; Ромм М. Избранные произведения в 3-х томах. – М.: Искусство, 1980–1982. Т. 1. - 1980. - 575 с.; Т. 2. - 1981. – 478 с. Т. 3. - 1982. - 574 с.; Shklovskiy V. San'at "usul" sifatida /rus tilidan H.Boltaboyev tarjimai // Jahon adabiyoti. – 2018. – № 6. – В. 24-26.; Кнебель М. О действенном анализе пьесы и роли. - 3-е изд. – М. : Искусство, 1982. - 119 с.

jamiyat taraqqiyoti masalalari va bevosita teatr rejissurasining turli aspektlari muhokama etiladi.

O'zbek teatrshunoslari tomonidan rejissura san'atiga oid ilmiy izlanishlar, dissertatsiya, monografiya, to'plamlar yozilgan va nazariy xulosalar qilingan. Muammoning ayrim ilmiy metodologik masalalari M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, E.Ismoilov, T.Islomov, H.Ikromov, M.To'laxo'jayeva, I.Muxtorov, S.Qodirova, D.Rahmatullayeva, O.Tojiboyeva, M.Ahmadjonova, E.Umarov, Sh.Rizayev, M.Umarov, A.Ismoilov, M.Turobovalar tomonidan o'rganilgan⁶. Ularda o'zbek teatrining genezisi, ilk ommaviy tomoshalar, xalq bayramlari, sahna qonuniyatlari, rejissura, dramaturgiya, aktyorlik san'ati, ssenografiya, musiqiy bezak, tomoshabinlar auditoriyasi, mahorat va ijod muammolari o'rganilgan. Mazkur ilmiy izlanishlar teatrlarimizda rejissuraning ahamiyati hamda rejissyor mas'uliyati masalalariga atroflicha yondashilganligi bilan ahamiyatli va muhim metodologik tayanch xizmatini o'tadi. Biroq bu tadqiqotlarda Bahodir Yo'ldoshev rejissurada an'ana va zamonaviy tendensiyalar uyg'unligi masalalari alohida ilmiy mavzu sifatida tahlil etilmaganini qayd etish lozim. Dissertatsiyada mavzu shu nuqtayi nazaridan o'rganildi va ilmiy xulosalar qilindi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Bahodir Yo'ldoshev rejissurasida an'ana va zamonaviy teatr tendensiyalari uyg'unligi masalasini san'atshunoslik nuqtayi nazaridan ochib berishdan iborat.

⁶ Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи: XVIII асрдан XX аср аввалигача. – Тошкент: Фан, 1968. – 430 б.; Ҳамза номли ўзбек давлат академик драма театри: К.1:1914–1960-йиллар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 325 б.; Раҳмонов М., Тўлахўжаева М., Мухторов И. Ўзбек Миллий академик драма театри тарихи. – Тошкент: Фан ва технологиялар маркази, 2003. – 268 б. Раҳмонов М. Ўзбек театр танқидчилиги тарихи. – Тошкент, 2016. – 160 б.; Қодиров М. Ўзбек анъанавий театри. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2014; Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи (1900–2007). – Тошкент: Арт-Пресс, 2010. – 568 б.; Исмоилов Э. Маннон Уйғур. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1965; Исломов Т. Тарих ва сахна. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 136 б.; Икромов Ҳ. Давр ва театр. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. – 240 б; Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра: тенденции развития и современные проблемы. – Тошкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1995; Баходир Йўлдошев – макон ва замонда. – Тошкент: Санъат, 2015. – 368 б.; То'laxo'jayeva M. Teatr tanqidchiligi. – Toshkent: San'at, 2015. – 408 b.; История театра. Узбекский театр периода независимости. – Ташкент: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2021; Мухтаров И. Узбекский театр. Страницы истории и современности. – Ташкент: San'at, 2014. – 240 с.; Qodirova S. Komediya san'ati tarixi. – Toshkent: San'at, 2008. – 212 b.; Rahmatullayeva D. O'zbek teatri: tarixiy drama. – Toshkent: San'at, 2004. – 326 b.; Tojiboyeva O. Epos – san'at ko'zgusida. – Toshkent: O'zDSI, 2009. – 133 b.; Axmetjanova M. Teatr san'atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ta'siri: Fal. fan. dok. dis. – Toshkent, 2022. – 165 b.; Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 175 б.; Umarov E. Dramaturgiya va rejissura asoslari. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 246 b.; Ismoilov A. Zamonaviy o'zbek drama teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari (1991–2006): San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 44 b.; Turobova M. Zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi: San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2025. – 47 b.

Tadqiqotning vazifalari:

B.Yo‘ldoshev rejissurasining o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkor fenomenining shakllanishiga ta’sir etgan san’at va ijtimoiy muhitning ta’sirini ochib berish;

rejissyorning ijtimoiy-madaniy voqeaga aylangan spektakllarini tahlil etish orqali milliy va jahon teatr san’atida kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalar bilan sintezlashtirish borasidagi tajribalarini tadqiq qilish;

rejissyorning o‘zbek xalqining teatr madaniyatiga ta’sirini baholash;

zamonaviy teatr texnologiyalari va ifoda vositalarining Bahodir Yo‘ldoshev sahna asarlarida ifodalanishini aniqlash;

B.Yo‘ldoshevning rejissyor va aktyorlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik uslublari va studiyachilik harakatining yetakchi tashabbuskori bo‘lganini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Bahodir Yo‘ldoshevning teatr va maydon tomoshalaridagi rejissyorlik izlanishlari, shuningdek, ularda milliy va jahon teatr san’ati an’analari hamda zamonaviy tendensiyalarning o‘zaro uyg‘unlashuv jarayoni belgilandi.

Tadqiqotning predmetini Bahodir Yo‘ldoshev rejissurasining o‘ziga xos jihatlarini, ustoz-shogird an’analariga asoslangan pedagogik uslublari, professional teatr usullarini xalq maydon tomoshalarini bilan uyg‘unlashtirish tajribalari hamda milliy rejissura san’atida innovatsion ifoda vositalarining yuzaga kelish jarayonlarini o‘zida mujassam qilgan qator sahna asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda zamonaviy san’atshunoslikning tizimli-funksional yondashuv, tasniflash, retrospektiv va qiyosiy tahlil hamda intervyu (suhbat) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

B.Yo‘ldoshev rejissyorlik fenomeni va ijodiy uslubining konseptual asoslari qahramon psixologiyasining dramatik interpretatsiyasi (“Ajal minorasi”, “Qaroqchilar”, “Tirik murda”), milliylik va umuminsoniylik sintezi (“Nodirabegim”, “Yulduzli tunlar”, “Iskandar”) hamda metaforik-shartli teatr poetikasi (“Sudxo‘r”, “Uylanish”) kabi ustuvor yo‘nalishlar kontekstida baholanib, milliy teatr an’analari va zamonaviy rejissyorlik izlanishlarining integrativ birligi rejissyorlik konsepsiyasi sifatida aniqlangan;

B.Yo‘ldoshev ijodida (“Oydin kechalar”, “Buyuk Ipak yo‘li”) jahon (AQSh, Fransiya, Germaniya, Polsha) teatrlari eksperimental sahnalashtirish usullarining milliy an’analari bilan integratsiyalash kontekstida yorug‘lik, musiqa, plastika va ssenografiyaning mustaqil badiiy ifodaviyligiga ko‘ra yaxlit sahnaviy konsepsiyani shakllantirishning sintetik rejissyorlik tafakkuriga asoslangan innovatsion ifodaviy-kommunikativ badiiy mexanizmlari asoslangan;

B.Yo‘ldoshev ijodiy faoliyati g‘oyaviy-badiiy, janriy va institutsional jihatdan bir-biridan farq qiluvchi: teatr spektakllarida chuqur drammatizm va tomoshabin bilan bevosita muloqotga asoslangan sahnaviy echimlar (1972-2005-yy.), ommaviy maydon tomoshalarida makon va zamonning badiiy talqini (1994-2021-yy.), teatr studiyadagi pedagogik faoliyati (2008-2021-yy.) kabi uch bosqichda davrlashtirilgan;

B.Yo‘ldoshevning “Diydor” teatr-studiyasidagi pedagogik faoliyatida ustoz –shogird an‘anasiga asoslangan ijodiy laboratoriya va erkin ijod muhitiga tayangan rejissyorlik-pedagogik uslublarning professional va havaskor aktyorlar ansamblini shakllantirish hamda ularning ijodiy integratsiyasini ta‘minlash mexanizmi aniqlanib, mazkur tajribaning O‘zbekiston teatr studiyachiligi rivojida mustaqil pedagogik maktab sifatidagi ahamiyati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Bahodir Yo‘ldoshev rejissurasiga xos badiiy-estetik tamoyillar, sahnalashtirish uslublari va ijodiy yondashuvlari tizimlashtirilgan;

rejissura san‘atida shakllangan yangi ifoda vositalari va ularning jahon teatr san‘ati tendensiyalari bilan uyg‘unlashuviga oid aniqlangan jihatlar asosida amaliy sahna faoliyati, eksperimental spektakllar yaratish hamda zamonaviy teatr loyihalarini ishlab chiqish uchun metodik yavsiyalar ishlab chiqilgan;

B.Yo‘ldoshevning ijodiy pozitsiyasi va pedagogik faoliyatiga doir ilmiy xulosalar asosida yosh rejissyor va aktyorlarni tayyorlash jarayonida samarali pedagogik yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, studiyachilik harakatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

B.Yo‘ldoshev rejissurasiga oid tadqiqot natijalari oliy ta‘limning «Teatr tarixi», «Zamonaviy teatr jarayonlari», «Rejissura asoslari» fan dasturlari mazmuniga singdirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi jahon va o‘zbek teatrshunosligi va madaniyatshunosligi ilmida isbotini topgan ilmiy va nazariy metodlar qo‘llanilganligi, ijodkor faoliyatini kuzatish, spektakllarni tahlil etish, mavjud arxiv materiallari hamda ijodkorlar bilan bo‘lgan suhbatlardan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bugungi kunda milliy teatrlarda rejissuraning o‘rni, spektaklda badiiy yaxlitlik, rejissyorning dramaturg, rassom, kompozitor va boshqa mutaxassislar bilan ishlash prinsiplari, ustoz-shogird an‘analari bilan bog‘liq muammolarga doir san‘atshunoslikdagi mavjud qarashlarni qaytadan ko‘rib chiqishga, shuningdek, teatrshunoslik fanida ilmiy-nazariy xulosalar qilishga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, O‘zbekistonda mavjud davlat teatr jamoalari, kengashlar, uyushmalar, teatr-studiyalar, havaskorlik truppalari va ijod markazlaridagi teatr to‘garaklari faoliyatini takomillashtirish va tizimli o‘rganishda, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim jarayonida rejissyor kadrlarni tarbiyalashda, milliy teatr san‘atini modernizatsiya qilishda muhim manba bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bahodir Yo‘ldoshev rejissurasida an‘ana va zamonaviy teatr tendensiyalari uyg‘unligi masalasini san‘atshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

B.Yo‘ldoshev rejissyorlik fenomeni va ijodiy uslubining konseptual asoslari qahramon psixologiyasining dramatik interpretatsiyasi (“Ajal minorasi”, “Qaroqchilar”, “Tirik murda”), milliylik va umuminsoniylik sintezi (“Nodirabegim”, “Yulduzli tunlar”, “Iskandar”) hamda metaforik-shartli teatr poetikasi (“Sudxo‘r”, “Uylanish”) kabi ustuvor yo‘nalishlar kontekstida baholanib, milliy teatr an‘analari

va zamonaviy rejissyorlik izlanishlarining integrativ birligi rejissyorlik konsepsiyasi sifatida aniqlanganligi bo'yicha olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Teatr arboblari uyushmasining bir qator loyihalarni amalga oshirish jarayonida, xususan, 2025-yilning 12–20-may kunlari o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Teatr arboblari uyushmasining 2026-yil 5-maydagi 01-01-51-son ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlarning estetik saviyasini oshirish, milliy teatr va rejissura san'atini ilmiy asosda ommalashtirish, madaniy-ma'rifiy axborot makonini boyitish va rejissyor ijodini zamonaviy san'atshunoslik nuqtayi nazaridan keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan;

B.Yo'ldoshev ijodida ("Oydin kechalar", "Buyuk Ipak yo'li") jahon (AQSh, Fransiya, Germaniya, Polsha) teatrlari eksperimental sahnalashtirish usullarining milliy an'analar bilan integratsiyalash kontekstida yorug'lik, musiqa, plastika va ssenografiyaning mustaqil badiiy ifodaviyligiga ko'ra yaxlit sahnaviy konsepsiyani shakllantirishning sintetik rejissyorlik tafakkuriga asoslangan innovatsion ifodaviy-kommunikativ badiiy mexanizmlari asoslanganligiga oid nazariy xulosalardan 2025-2026-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Dramaturgiya (teatr, kino televidenie) kengashining yil yakuniga bag'ishlangan hisobot yig'ilishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2026-yil 13-maydagi 01-03/202-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot asosida aniqlangan xulosalar teatr san'atini keng jamoatchilikka to'g'ri va tizimli tarzda talqin etish imkonini yaratdi, dramaturgik asarlar va sahnalashtirish loyihalarini badiiy ekspertizadan o'tkazishning ilmiy-metodik mezonlari takomillashtirildi hamda spektakllarning badiiy echimini baholash samaradorligi oshirilishiga xizmat qilgan;

B.Yo'ldoshev ijodiy faoliyati g'oyaviy-badiiy, janriy va institutsional jihatdan bir-biridan farq qiluvchi: teatr spektakllarida chuqur drammatizm va tomoshabin bilan bevosita muloqotga asoslangan sahnaviy echimlar (1972-2005-yy.), ommaviy maydon tomoshalarida makon va zamonning badiiy talqini (1994-2021-yy.), teatr studiyadagi pedagogik faoliyati (2008-2021-yy.) kabi uch bosqichda davrlashtirilganligi bo'yicha olingan nazariy xulosalar va ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Teatr arboblari uyushmasining bir qator loyihalarni amalga oshirish jarayonida, xususan, 2025-yilning 12–20-may kunlari o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Teatr arboblari uyushmasining 2026-yil 5-maydagi 01-01-51-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy natijalarning ma'naviy-ma'rifiy sohada joriy etilishi milliy teatr san'atini targ'ib qilish, tomoshabinning san'atga nisbatan ongli munosabatini qaror toptirishga xizmat qilgan;

B.Yo'ldoshevning "Diydor" teatr-studiyasidagi pedagogik faoliyatida ustoz–shogird an'anasiga asoslangan ijodiy laboratoriya va erkin ijod muhitiga tayangan rejissyorlik-pedagogik uslublarning professional va havaskor aktyorlar ansamblini shakllantirish hamda ularning ijodiy integratsiyasini ta'minlash mexanizmi aniqlanib, mazkur tajribaning O'zbekiston teatr studiyachiligi rivojida mustaqil pedagogik maktab sifatidagi ahamiyati dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining bir qator loyihalarini amalga oshirish jarayonida, xususan, teatr festivallari loyihalarini tayyorlashda foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 13-maydagi 02-11-20-1718-son ma’lumotnomasi). Natijada, teatr studiyalari faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari takomillashtirilib, ijodiy jamoalarni shakllantirish va ularning integratsiyasini ta’minlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr ettirilgan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat bo’lib, ishning umumiy hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Teatr rejissurasi nazariyasining shakllanishi: tarixiy va metodologik omillar**» deb nomlanib, unda teatr san’ati va rejissurasining ilmiy-metodologik hamda konseptual masalalari tadqiq etilgan, XX asr o‘zbek teatri rejissurasi va uning asosiy taraqqiyot bosqichlari ko‘rib chiqilib, davlat teatri tizimi va rejissurada shakliy-uslubiy izlanishlar bayon etilgan.

Rejissura san’atining tarixiy-nazariy asoslarini tahlil qilish mavzuni ilmiy jihatdan asoslashda muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Rejissura XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab teatrning markaziy ijodiy mexanizmiga aylangan bo’lib, shu davrdan e’tiboran teatr rejissyori tafakkuri orqali shakllana boshladi. XX–XXI asrlarda teatrning boshqa shakllarga o’tishi rejissura nazariyasini qayta ko‘rib chiqishni, uni faqat sahnalashtirish amaliyoti emas, balki murakkab tizim sifatida talqin etishni taqozo etdi.

Jahon teatrshunosligida rejissyorning teatrdagi markaziy ijodiy figura sifatida maydonga chiqishi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Rejissura san’atining tarixiy, ilmiy va nazariy asoslari ko‘plab xorijiy, rus va o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan. Rejissura atamasi XX asrga kelib keng qo‘llanila boshlanganligi sababli rejissura va uning muammolari bo’yicha tadqiqotlarning aksariyat qismi XX va XXI asrga tegishli.

XX–XXI asrlar teatr rejissurasining nazariy asoslarini qayta shakllantirdi. Teatrning postdramatik, texnologik, immersiv va interfaol shakllari paydo bo‘ldi, bu esa rejissyori vazifalarining kengayishiga olib keldi.

Xorij tadqiqotchilari rejissuraning qator xususiyatlarini keng qamrovda yoritdi. Ular tadqiqotlarida rejissuraning genezisi, ilk qadamlari, xususan, XX va XXI asr rejissura san'ati turli teatr maktablari va estetik qarashlar ta'sirida shakllangan murakkab tarixiy-evolyutsion jarayon sifatida talqin qilindi.

Agar Rossiya tadqiqotchilari V.Rozin, I.Nikitinalar teatr nazariyasi va amaliy tajribalarini mavjud tajribalar va eksperimentlar, ayniqsa studiya va «klubchilik» harakati bilan bog'lab tadqiq qilib, bu boradagi ilmiy-uslubiy va konseptual masalalarni madaniyat falsafasi bilan uyg'unlashtirishsa, G'arbning taniqli vakillari Daniel Geriuld, Mixail Billington va Mark Fortye teatr san'atining XXI asrdagi istiqbolli modellari, ularning badiiy-estetik baholanishi bilan bog'liq tomonlarini muhokama qiladilar. J.Middletonning «21st Century Theatres: A Flexible Approach» tadqiqotida esa zamonaviy teatr rivoji (evolyutsiyasi) XXI asr rejissyorlari strategiyalariga kuchli ta'sir etgani ta'kidlanadi. Uning fikricha, teatr makonining moslashuvchanligi rejissyorni fazoviy dramaturgiya yaratishga undaydi. Site-specific, immersiv va mobil teatr formatlari rejissuradan makonni dramaturgik vosita sifatida boshqarishni talab qiladi.

Poetik va falsafiy rejissura an'analari G.Streler, A.Kamyu tomonidan o'rganilgan. Streler ritm, obraz va dramaturgik strukturani rejissyorning asosiy vositalari deb bilsa, Kamyu rejissyorning vazifasi absurd g'oyasini sahnaning minimalistik va simvolik vositalari orqali ochishdan iboratligini ta'kidlaydi. Ivanna Chabbakning «Chubbuck Technique» (Chabbak texnikasi) usuli aktyor psixologiyasini sahna jarayonining markaziga qo'yadi. Chabbak fikricha, rejissyor – aktyorni ruhiy faoliyatga undayotgan emotsional trenerdir.

Shu tariqa, xorij tadqiqotchilari rejissurani faqat sahnaviy kasb emas, balki inson tajribasi, jamiyat, texnologiya va estetika kesishmasida shakllanuvchi murakkab ilmiy-ijodiy tizim sifatida talqin qiladi.

Rejissura MDH, Boltiqbo'yi davlatlari va Rossiya tadqiqotchilari tomonidan keng va to'laqonli o'rganilgan mavzudir. Rejissyorlik g'oyasi, ko'rimi va spektakl kompozitsion tuzilishi masalalari V.Norenko, O.Fedenkova, Ye.Slesarlar tomonidan o'rganilgan. Ular nazariyasiga ko'ra, rejissyorlik niyati – spektakl dramaturgiyasini uyg'unlashtiruvchi integrativ mexanizmdir, rejissyor va dramaturg o'rtasidagi ijodiy hamkorlik esa «ikki mualliflik» modelidir.

K.Stanislavskiyning «kechinma san'ati» maktabi nazariyasi Y.Mosina, O.Andreykina, M.Naydenko, Y.Artemyeva kabi jahonning juda ko'p olimlari tomonidan hanuzgacha o'rganilmoqda. Aktyor va rejissyor ijodiy hamkorligi masalalari ham doimiy ravishda V.Zolotuxin, A.Dubrovskaya, O.Lipsin, V.Starodubsev kabi nazariyotchi va amaliyotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Mazkur nazariy qarashlar O'zbekiston teatr san'ati yuksalishida ham muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi. XX asr boshlaridan boshlab o'zbek professional teatri Yevropa va rus teatr an'analari, xususan, Stanislavskiy tizimi (sistemi), Nemirovich-Danchenko tamoyillari, Tairov, Vaxtangov va Meyerxold estetik qarashlari asosida rivojlandi.

O'zbek teatr san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish bo'yicha M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, E.Ismoilov, T.Islomov,

H.Ikromov, M.To'laxo'jayeve, I.Muxtorov, S.Qodirova, D.Rahmatullayeva, O.Tojiboyeva, M.Ahmadjonova, Sh.Rizayev, M.Umarov, A.Ismoilovlar ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek teatrini ibtidoiy jamoa davridagi marosim va xalq tomoshalaridan tortib, professional dramatik teatr shakllanishigacha bo'lgan uzoq evolyutsion jarayon sifatida talqin qiladi. Bu evolyutsiyaning markazida esa rejissura san'atining shakllanishi va uning badiiy-estetik yetakchi kuchga aylanishi turadi.

Ilmiy-nazariy va tarixiy izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek teatr san'ati rivojlanishning uzoq va ziddiyatli bosqichlarini bosib o'tgan. Birinchidan, unda ilk bosqichlardagi primitiv, ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi oddiy xatti-harakatlardan tortib, to professional san'atkorlar shakllanishigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, teatr san'ati o'zbek etnomadaniyati qo'ynidagina milliy madaniyatga oid voqelik sifatida shakllanishi tabiiy hol edi. Ushbu milliylik maydon va oilaviy tomoshalardan tortib to M.Behbudiy, A.Avloniy, H.Niyoziy, M.Uyg'ur, Y.Bobojonov, A.Ginzburg, T.Xo'jayeve va B.Yo'ldoshev rejissurasida o'z mujassamini topgan. Uchinchidan, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, integratsiyalashish, yangi-yangi uslublar va yondashishlarni izlash o'zbek milliy madaniyatiga xos. O'zbek xalqi va madaniyatiga xos bo'lgan ushbu internatsionallashib rivojlanish o'zbek teatri san'atida ham o'z ifodasini topishi tabiiy holdir. Buni rejissurada yuqorida nomlari keltirilgan yetuk rejissyorlar teatr san'atiga olib kirgan va B.Yo'ldoshev rejissurasida o'zining takomilini topgan sahnaviy yangiliklarida ham ko'rish mumkin. Shundan kelib chiqadiki, tarixiy-evolyutsion jarayonning eng yuqori bosqichlaridan biri Bahodir Yo'ldoshev ijodi bilan bog'liq. U o'zbek rejissurasini faqat shakliy jihatdan emas, balki nazariy va metodologik jihatdan ham yangi bosqichga ko'targan ijodkor sifatida baholanadi.

Rejissyor faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari quyidagi tamoyillarda o'z aksini topgan:

- milliy rejissura uslubining shakllanishi.
- sintetik teatr konsepsiyasi.
- badiiy matnni chuqur talqin qilish.
- tomoshabinga hurmat va mas'uliyat hissi.

Bahodir Yo'ldoshev ijodi san'atshunos va teatrshunos olimlar nazaridan chetda qolmadi. M.Rahmonov, N.Karimov, M.Qodirov, I.Muxtorov, Sh.Rizayev kabi olimlar Bahodir Yo'ldoshevni o'zbek teatr san'atida yangi davrni boshlagan, estetik islohotchi rejissyor sifatida tan olib, uning sahnaga kirib kelishini realistik-psixologik an'anadan shartlilik, epiklik va falsafiy metaforaga o'tish davrining eng muhim bosqichi deb hisoblaydilar.

Professor Muhabbat To'laxo'jayeveining B.Yo'ldoshev ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan izlanishlarining ilmiy mushohadalarga boyligi uning rejissyor ijodini tizimli ravishda o'rganganligidan dalolat beradi. Mazkur tadqiqotlarda Bahodir Yo'ldoshev milliy teatrni yangilash va uni global tendensiyalar bilan bog'lashga muvaffaq bo'lgan yirik islohotchi sifatida yoritiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy izlanishlar rejissura san'atini tarixiy-evolyutsion, falsafiy, estetik va ijtimoiy tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. O'zbek teatri misolida bu jarayon milliy an'analar, jahon estetikasi va ijodiy shaxs

– rejissyor fenomeni oʻrtasidagi murakkab oʻzaro taʼsir natijasida shakllangan. Ayniqsa, B.Yoʻldoshev ijodi mazkur jarayonning eng yorqin, nazariy jihatdan asoslashga arziydigan bosqichi sifatida namoyon boʻladi. Shu bois rejissura sanʼatining tarixiy-nazariy asoslarini oʻrganish, uni jahon va milliy teatr kontekstida tahlil qilish mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishini ilmiy jihatdan toʻliq asoslaydi.

Birinchi bobning «**XX asr oʻzbek teatri rejissurasi: asosiy taraqqiyot bosqichlari**» nomli ikkinchi boʻlimida rejissuraning taraqqiyot bosqichlari va ularning B.Yoʻldoshev ijodiga taʼsiri masalalari oʻrganilgan. XX asr oʻzbek teatri va rejissurasi bir necha muhim taraqqiyot bosqichlarini bosib oʻtdi. Ularni 5 bosqichga boʻlish oʻrinli boʻladi.

Birinchi bosqich. XX asr boshlarida jadidchilik harakati taʼsirida milliy teatr shakllanib, sahnaga maʼrifatparvarlik gʻoyalari olib chiqildi; bu davrda rejissura hali mustaqil sanʼat sifatida toʻliq shakllanmagan boʻlsa-da, spektakllarni sahnalashtirishda yangicha yondashuvlar paydo boʻldi.

Ikkinchi bosqich. 1920–1930-yillarda professional teatrning rivojlanishi, professional teatr jamoalari tashkil etilishi bilan rejissura sanʼati ham tizimli ravishda shakllandi, sahna madaniyati, aktyorlik mahorati va dramaturgiya oʻrtasidagi uygʻunlikka eʼtibor kuchaydi. Aynan shu bosqichda rejissura alohida ijodiy kasb sifatida qaror topdi.

Uchinchi bosqich. 1940–1950-yillar, yaʼni Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda teatr sanʼati mafkuraviy yuklama bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanib, ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyib, rejissyorlar sahna vositalari orqali davr ruhini aks ettirishga intildilar.

Toʻrtinchi bosqich. 1960–1980-yillar oʻzbek teatri rejissurasida nisbatan erkin ijodiy muhit shakllangan davr boʻlib, bu bosqichda badiiy izlanishlar sezilarli darajada kengaydi.

Beshinchi bosqich. Mustaqillik davrida oʻzbek teatri rejissurasi yangi bosqichga koʻtarilib, ijodiy erkinlik, milliy oʻzlikni anglash va badiiy tajribalarning kengayishi bilan tavsiflanadi.

Mustaqillik davri rejissurasining rivojida B.Yoʻldoshev, M.Vayl, V.Umarov, N.Abdurahmonov, O.Salimov kabi ijodkorlarning oʻrni alohida ahamiyatga ega. Ularning ijodi sahnaviy tafakkurning yangilanishiga, milliy badiiy anʼanalarning mustahkamlanishiga hamda oʻzbek teatrining zamonaviy teatr jarayonlariga integratsiyalashuviga xizmat qildi.

Bobning uchinchi paragrafi «**Davlat teatri tizimi va rejissurada yangi badiiy-uslubiy izlanishlar**» deb nomlangan. Boʻlimda B.Yoʻldoshevning rejissyor sifatida shakllanishida davlat teatrining oʻrni va ahamiyati ochib berilgan. Taʼkidlash joiz, aynan shu davrlarda u oʻzining eng mahobatli, yangi shakl va mazmundagi spektakllarini yaratdi.

Bahodir Yoʻldoshev uchun tarixiy dramalar faqatgina sahnalashtirish obyekti emas, balki ikki karra muhim vazifani bajaruvchi tajriba maydoni vazifasini oʻtadi. Ayni shu maydonda, anʼanalar bilan oʻzaro munosabat va hamkorlikning yangi tamoyillari pishib yetildi va shakllandi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda o'zbek teatr san'ati hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi, yozma dramaturgiya va professional rejissura san'ati paydo bo'ldi. Viloyatlar markazlarida professional teatrlar tashkil etildi, ularga rejissyorlar va aktyorlar tayyorlandi. Shu bilan birga xalqimiz madaniy hayotida erkin ijod qilishga to'siq bo'lgan ideologik shtamplar ham bo'lganini aytishimiz darkor. Bu ziddiyatlar XX asrning 70–80-yillariga kelib cho'qqisiga chiqdi. Biz hayoti va ijodini o'rganayotgan rejissyor B.Yo'ldoshev ana shunday ziddiyatlarga to'la ijtimoiy-madaniy muhitda teatr san'atiga kirib keldi. Mustaqillik arafasidagi o'zbek teatri va rejissurasini yangi izlanishlar, novatorlik bilan boyitish B.Yo'ldoshev zimmasiga tushdi.

Bahodir Yo'ldoshev rejissurasi o'zbek teatr san'ati taraqqiyotida o'ziga xos yangi bosqichni yaratib berdi. U an'anaviy milliy teatr estetikasini zamonaviy rejissura tendensiyalari bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirib, sahnada kuchli badiiy obrazlar, falsafiy mazmun va emotsional ta'sirchanlikka ega spektakllar yaratdi. U tomonidan taklif etilgan uslub va shakllar O'zbekistonda zamonaviy teatr tafakkurining shakllanishida muhim omil bo'ldi.

Dissertatsiyaning **«Bahodir Yo'ldoshev rejissurasida milliy va jahon sahna san'ati an'alarining integratsiyalashuvi jarayonlari»** deb nomlangan ikkinchi bobining asosiy maqsadi Bahodir Yo'ldoshev ijodining o'ziga xos tamoyillarini, xususan, uning sahnalashtirish san'atida milliy teatr an'analari va jahon sahna san'ati tajribalari nechog'liq integratsiyalashib, uyg'unlashganini tahlil etishdan iborat.

Bahodir Yo'ldoshev ijodiy faoliyati yarim asrlik o'zbek teatr san'ati taraqqiyotining muhim burilish nuqtasi bo'ldi. B.Yo'ldoshev sahna asarlarida o'zbek xalq teatrining qadimiy shakllaridan keng foydalanish barobarida, B.Brext, G.Tovstonogov, Y.Grotovskiy, P.Bruk kabi jahon rejissurasining yetakchilari tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy teatr tizimlari va uyg'unlashtira oldi. U milliylikni tor doirada cheklab qo'ymasdan, uni umumbashariy g'oyalar bilan boyitdi, shu orqali o'zbek teatrini jahon sahnasiga olib chiqdi.

Bobning **«O'zbek davlat drama teatridagi ijodiy izlanishlar»** deb nomlangan birinchi bo'limida B.Yo'ldoshevning sobiq «Yosh gvardiya» (hozirgi O'zbekiston davlat drama) teatridagi faoliyati tahlil etiladi. Rejissyorning bu davrdagi ijodiy faoliyatini milliy va umuminsoniy g'oyalar aks etgan asarlarni sahnalashtirish, o'zbek teatrini yangi janrlar va uslubiy bo'yoqlar, dadil sahnaviy shakllar bilan boyitish, G'arb va Sharqning moddiy va ma'naviy merosini bir-biriga omixtalashtirish, an'analarni zamonaviy teatr unsurlari bilan sintezlashtirish, yuksak badiiylikka yo'g'rilgan sahnaviy ifoda vositalaridan unumli foydalanish bosqichi, deya baholash o'rinlidir.

Rejissyorning Sh.Xolmirzayev asari asosidagi «Qora kamar» spektaklida o'zbek xalqining sho'rolar davridagi tarixi, madaniyati, xalq kechmishlari hayotiy ravishda tasvirlanadi. O'ta dadil g'oyalar ilgari surilgan asarni sahnaga olib chiqish 1980-yillarning ikkinchi yarimida katta jasoratni talab etardi va bu jasorati tomoshabinning tarixiy haqiqatlardan voqif bo'lishlari yo'lida xizmat qildi.

1990-yillariga kelib B.Yo'ldoshev o'zining rejissyorlik topilmalaridan tobora ko'proq foydalanishga intila boshladi. Uning «Iskandar» (1990), «Paranji sirlari»

(1991), «Malika» (1993), «Bir eshak hangomasi» (1994), «Ipak yo'li» (1997), «Sudxo'r» (1998) kabi spektakllarida metaforik timsollar ifodasini yanada yorqinroq ko'rish mumkin. Uning ijodida milliylikka bo'lgan intilish jahon sahna san'atining ilg'or usullari bilan sintezlashib, o'ziga xos rejissura uslubini yaratdi.

Bobning **«Spektaklda rejissyor va rassom ijodiy hamkorligi masalasi»** bo'limida B.Yo'ldoshevning rassom bilan ishlash jarayonlari o'rganilgan. Teatr san'atida rejissyor va rassom hamkorligi maqsadi bir, o'zagi va negizi yaqin voqelik hisoblanadi. Spektaklda badiiy yaxlitlikni rejissyor va uning g'oyaviy maqsadi, usullari, yechimlari tashkil etadi. Rassom o'z tasavvurlarini eskiz va maketlariga, «zadnik» va sahna bezaklariga kiritmay qolmaydi. U hatto rejissyor g'oyalarini boyitishi, o'zgartirishi mumkin. Georgiy Brim Bahodir Yo'ldoshevga ana shunday ta'sir qilgan.

Ushbu ijodiy tandem doirasida teatr an'analari qayta baholanib, yangilanish, yangi shakllar va tomoshaviylik vositalarini izlash jarayoni kuchaydi. Rejissyorlik konsepsiyasi bilan ssenografik muhit o'rtasidagi uzviy uyg'unlik natijasida nafaqat spektakllar estetikasi yangicha talqin etildi, balki milliy teatr uslubining zamonaviy ko'rinishlari shakllandi. Bahodir Yo'ldoshev va Georgiy Brim teatr shakli va milliy mazmun o'rtasidagi ma'lum bir nomuvofiqlikni va bu tushunchalar orasidagi tafovutni bartaraf etishga, faqatgina o'zbek tilida emas, balki mohiyatan milliy ruhdagi spektakllarni sahnalashtirishga intildilar. Rejissyor va rassom ba'zi postanovkalarda murakkab ijroviy konstruksiyalar tiklaydilar, boshqalarida arxitektura elementlarini realistik tasvirlaydilar, uchinchilarida esa spektakl vizual obrazini o'ta shartli hal etib, bu yo'lda eng sodda tasviriy-ifodaviy vositalarni qo'llaydilar va bular orqali milliy va jahon sahna san'ati an'alarining integratsiyasini namoyon qiladilar.

Shuni qat'iy aytish mumkinki, Bahodir Yo'ldoshev va Georgiy Brim hamkorligi o'zbek teatr san'atida rejissyorlik tafakkuri bilan ssenografiya o'rtasidagi munosabatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqan. Ularning ijodiy tandemi doirasida ssenografiya an'anaviy «bezak» vazifasidan chiqib, spektaklning mazmuniy-g'oyaviy tuzilmasini shakllantiruvchi, dramatik harakatni boshqaruvchi va tomoshabin idrokini yo'naltiruvchi faol badiiy tizimga aylandi.

Ikkinchi bobning uchinchi – **«Teatrlashtirilgan tomoshalar rejissurasida milliy va jahon teatr an'alarining omixtalashuvi»** nomli bo'limida B.Yo'ldoshevning teatrlashtirilgan tomoshalar rejissurasi ijodiy izlanishlarining bir yo'nalishi sifatida tadqiq etilgan. Teatr rejissurasi tayyor, barqaror va bir maqsadda yig'ilgan auditoriya qiziqishlarini qondirishga qaratilgan dastur⁷, ma'lum bir asar yoki pyesa asosida uyushtiriladigan sahna xatti-harakatlari kompleksi⁸. Unda asosiy yuk rejissyor va aktyorlarga yuklanadi.

Teatrlashtirilgan tomoshalar rejissurasi muayyan dastur, badiiy asar yoki dramaturgik material asosida tashkil etilgan sahnaviy harakatlar majmuasini ifoda etadi. U keng tomoshabinlar auditoriyasiga emosional-estetik ta'sir ko'rsatishga

⁷ Немирович –Данченко В. О театральном искусстве. О творчестве актера и режиссёра. – М: Direktmedia, 2003. – 243 с.

⁸ Грибова О., Лешенко А. Особенности режиссуры спектакля передвижного театра. – М.: ООО Direktmedia, 2020. – 148 с.

qaratilgan bo'lib, mazkur sahna san'ati turida asosiy badiiy va tashkiliy mas'uliyat rejissyor, aktyorlar hamda sahnalashtirish jarayonining barcha ishtirokchilari zimmasiga yuklanadi.

